



Bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodlari

Kadirova Dildora Nadjatbekovna

Qo`qon davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali metodlaridan ayrimlarini qo'llash to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: universal ta'lim metodlari, mashg'ulotlar, ta'lim metodlari, majmua, maktabgacha yoshdagi bolalar, innovatsion fikrlash ko'nikmalari, shakllantirish, samarali metodlar.

Аннотация: Поскольку универсальных методов обучения не существует, на занятиях возможно использование различных методов обучения или их сочетание. В статье рассматривается применение некоторых эффективных методов развития инновационного мышления у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: универсальные образовательные методы, упражнения, воспитательные методы, комплекс, дошкольники, инновационные развивающие навыки, формирование, эффективные методы.

Abstract: The article discusses the use of some effective methods for developing innovative thinking in preschool children.

Key words: universal educational methods, exercises, educational methods, complex, preschoolers, innovative developmental skills, formation, effective methods.

Oila - dastlabki tarbiya va ilm o'chog'i. Farzandga ko'rsatilayotgan ilk ijtimoiy munosabatlar maskani. Farzand ilk bora mehrni o'z onasidan oladi. Onasining g'amho'rliklari, shirin ovozda aytgan allasi, har tun o'qib eshittirilgan ertaklari bola ongida o'zining ijobiy energiyasi bilan saqlanib qoladi. Va bora bora bu energiya bolaning ongida asta shakllanib ijtimoiy munosabatlar va aloqalarning yaxshi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni normal kechsa u boshqa insonlar bilan muloqotida, ularga ko'rsatayotgan mexribonliklarida, boshqalar g'amqayg'usiga sherikliklarida, o'z xohish-istaklarini bemalol ayta olishida, do'stlaridan yordam so'ray olishlarida va boshqa vaziyatlarda ko'zga tashlanadi. Bola ilk ijtimoiy munosabatlarini oilada tarkib topdirar ekan, u bilan muloqotda bo'ladigan ota-ona farzandini tushunadigan, unga to'g'ri tarbiyani bera oladigan, o'z navbatida bolasini bolalar jamoasiga qo'shishga undab turadigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki bola oilada tarbiyalanayotgan ekan birinchi galda uni do'stlari, tengdoshlari bilan aloqasi ta'minlanishi kerakdir. Keyinchalik bola 3 yoshga to'lib MTT ga qatnay boshlaganda bolalar jamoasiga, ya'ni yangi muhitga ko'nikishi oson kechadi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi ilmida bu yoshdagi bolalar ta’limi metodikasi umumiy o’rta ta’lim maktablarida qo’llaniladigan metodlardan qisman farqlanadi. Unda ta’limning og’zaki, ko’rgazmali va amaliy metodlaridan foydalanish ustuvorlik qiladi.

Metod biror masalani hal etish, maqsadga erishish yo’li sifatida olam va odam sirlarini, tabiat va jamiyat hodisalarini bilish usulidir. Umumiy ma’noda bu tushuncha muayyan maqsadga erishish faoliyatini ma’lum tarzda tartibga solish yo’li sifatida talqin etiladi. O’qitish jarayonining qaysi bosqichida bo’lishidan qat’iy nazar, qo’llaniladigan metodlar ta’lim metodlari deb yuritiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan har qanday mashg’ulotda tarbiyachi tomonidan qo’llanilayotgan ta’lim metodlari majmuasi kichik guruhdan o’rta guruhga, undan yuqori va maktabga tayyorlov guruhlariga o’tish asnosida ham o’zgarib, murakkab xususiyat kasb eta borishi mumkin. Ushbu jarayonda ayrim metodlardan ko’proq foydalanilsa, ba’zilarini qo’llashga bo’lgan ehtiyoj kamayadi. Ta’lim metodlaridan foydalanish ko’lami, holati tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog’liq holda o’zgarib turadi.

Ma’lumki, ta’lim metodlari – o’quv jarayonining murakkab tarkibiy komponenti bo’lib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, faoliyatlarining barcha yo’nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o’rtasida ko’p sonli aloqa hamda bog’lanishlarni yuzaga keltiradi.

«Ta’lim metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta’minlovchi, algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir», deydi P.I.Podlasnyy. Olim bu boradagi qarashlarini davom ettirib yozadi: «Ta’lim metodlari tasnifi ularning ma’lum belgilari bo’yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o’nlab ta’lim metodlari ma’lum. Biroq bugun yetakchi sanaluvchi didaktik g’oya, yagona va o’zgarimas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini ta’kidlab turibdi. O’qitish – favqulodda harakatchan dialektik jarayon. Ta’lim metodlari tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo’shqin bo’lishi, metodlarni qo’llash amaliyotidagi doimiy o’zgarishlarni hisobga olishi kerak». Ko’rinadiki, ta’lim metodlari turg’un hodisa emas va ulardan o’qitishning har bosqichida o’ziga xos va mos tarzda foydalanish mumkin.

Sharqda "Shayx - ul rais" (Olimlar raisi) unvoni bilan mashhur bo’lgan Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan Ali ibnSinoning (980-1037) "Tadbir ul-manozil" asarida bayon etilgan o’qitish usullari hozirgi davr ta’limotlariga mos kelishi xam nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir.

"Bola baqquvat bo’lib, so’zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlagandan so’ng u savod o’rganishga qobil bo’ladi, shundan so’ng savodga o’rgata borish mumkin". Ibn Sino ta’kidlashicha, tarbiyalanuvchiga bilim berishda o’qituvchining pedagogik mahorati va mas’uliyatli burchi masalasiga alohida to’xtalib, o’qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishidan avval, ularning xulq - atvorini o’rganishi va bilimlarini tekshirib ko’rishi, qiziqishini, nimaga qodir ekanligini tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, murabbiylarga quyidagilarga amal qilishni lozimligini ilgarit suradi:

Bu o’rinda: bolalar bilan muomilada bosiq, jiddiy bo’lishi, berayotgan bilimning tarbiyalanuvchilar qanday o’zlashtirib olayotganiga alohida yondashishi muhimligi; ta’limda turli o’qitish usullari va shakllaridan foydalanishi; tarbiyalanuvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi; bilim olishga

qiziqтира olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni tarbiyalanuvchilarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi; har bir soʻzning bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishish zarur.

Taʼlim usullari taʼlim metodlaridan foydalanish oʻqituvchi va oʻquvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi aniq faoliyatidir. Taʼlim usullari yordamida taʼlim metodi zamiridagi vazifalarning bir qismi bajariladi. Ayni usullardan turli metodlar negizida ham foydalanilishi mumkin. Yoki aksincha, ayni metod turli usullar koʻmagida ochib berilishi ham mumkin. Usul taʼlim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida taʼriflanadi. Har bir taʼlim metodi muayyan taʼlim usullarini chogʻishtirish orqali joriy etiladi. Taʼlim usullari metoddan foydalanish asosidir. Har qanday metod bir qancha usullarni oʻz ichiga qamrab oladi. Taʼlim amaliyotida, juda koʻp metodlar zamirida qamrab olinadigan, koʻp qoʻllaniladigan usullar sifatida: namoyish etish, koʻrgazmali, tajriba, amaliy, aqliy harakatlar; masalani oʻrganish; savol yoki topshiriq berish; yoʻl-yoʻriq koʻrsatish, xulosa chiqarishlarni ajratib taʼkidlash mumkin.

Bugungi kunda maktabgacha taʼlim muassasalarining oʻqitish amaliyotida taʼlim metodlarining quyidagi turlaridan keng foydalanilib kelinmoqda. Jumladan:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishda oʻqitishning koʻrgazmali metodlar – kuzatish, koʻrsatmali tasvirlar (rasmlar, diafilmlar, slaydlar, kompyuter dasturlari)ni namoyish etish, namuna koʻrsatish kabi metodlar muhim oʻrin tutadi;

Shuningdek, ogʻzaki metodlar ham bolalarni innovatsion fikrlashga oʻrgatishda quyidagilar oʻziga xos ahamiyatga ega. Ularga quyidalar kiradi: hikoya, suhbat, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish, savollar bilan murojaat qilish, koʻrsatma berish va tushuntirish; amaliy metodlar safidan – mashq, tajriba, modellashtirish kabi metodlar oʻrin oladi.

Har bir metod maʼlum taʼlimiy vazifani muvaffaqiyatli hal etishi, qolganlari esa ayni holat uchun birmuncha samarasiz boʻlishi ham mumkin. Universal taʼlim metodlari mavjud boʻlmagani bois mashgʻulotlarda turli taʼlim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin boʻladi.

Taʼlim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

didaktik maqsadga koʻra; taʼlim mazmuniga koʻra; bolalarning koʻnikmalarni egallash va rivojlanish darajasiga koʻra; tarbiyachining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga koʻra.

Innovatsion taʼlim texnologiyalariga shartli kiritish mumkin boʻlgan, Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ishlab chiqilgan - loyihali taʼlimga hozirgi kunda katta ahamiyat berilmoqda. Loyihalar metodida, koʻzda tutilgan pedagogik maqsadlar ilmiy yoki amaliy muammolarni hal etishga yoʻnaltirilganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva N.Sh. Bolalar rivojlanishini nazorat qilishga variativ yondashuv// Maktabgacha taʼlim metodikasi va nazariyasi, T.: 2019.№ 3-son, B.10-12.

2. Babaeva D.R. Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi. oʻquv qoʻllanma. T.: 2017-196 b.

3.Baratov P. Tabiatshunoslik: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.T.:Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014-224 b.

4.Berdaliev G. Maktabgacha ta’lim muassasalari mashg‘ulotlari jarayonini integratsiyalash//Xalq ta’limi tizimida pedagog xodimlar kompetensiyasini takomillashtirish: muammolar va ularning yechimlari.Republika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2018.– B.81-84.

5.Berulava M.N. Integratsiya sodirjaniya obrazovaniya.-M.: Pedagogika, 1993.-172 s.

6.Byuler, K. Ocherk duxovnogo razvitiya rebenka.per. A. Altshuler, K. Vigodskoy i V. Moreyno ; pod red. i s vstup. st. L. S. Vigotskogo. – Moskva, Rabotnik prosveo’eniya, 1930.-222 s.

7.Kadirova D.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogic xususiyatlari // Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash va ta’lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishning strategik modellari. – Toshkent,2022.

8.Kadirova D.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish // Maktabgacha ta’lim: Xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent,2023.

9.Kadirova D.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish // NAMDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2023. №4.

10. Sulaymonov A., Amirova G. Maktabgacha ta’lim muassalaridagi tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarining nazariy va amaliy asoslari/ “Xalq ta’limi” J. 2013, 1-son